
Aholi murojaatlari asosida Oq oltin ko'chasiga asfalt yotqizildi

Rishton tumanida mahalliy yo'llar holatini yaxshilash, ularni joriy ta'mirlash va asfaltlash ishlari jadallik bilan davom ettirilmoqda.

Aholi murojaatlari asosida tuman yo'lsozlari tomonidan "Oq oltin" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki yo'llar ravon va soz holatga keltirilmoqda.

Rishton tumani hokimligi va O'zbekiston Prezidentining Uchko'prik tumanidagi xalq qabulxonasi tomonidan ushbu hududni "mahallabay" o'rganish jarayonida aholi murojaatlari asosida ichki ko'chalarni asfaltlash masalasi ko'tarilgan edi.

Ushbu murojaat qisqa fursatda ijobiy hal etilib, mazkur mahalla hududidagi ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.

Manzilli dastur asosida mahalla hududidagi Oq oltin ko'chasining 600 metr qismiga to'liq asfalt yotqizildi.

Tuman hokimligining tashabbusi bilan mahallalar hududlarida bosqichma-bosqich obodonlashtirish, ichki yo'llar holatini yaxshilash, ularni joriy ta'mirlash ishlari davom ettirilmoqda.

2022-11-26 11:31:10